

ESKI O‘ZBEK TILIDA KO‘MAKCHILARINING ISHLATILISHI (“Devoni hikmat” asari misolida).

Ibodullayeva O‘g‘iloy

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti, 3- kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada eski o‘zbek tilida ko‘makchilarning qo‘llanish xususiyatlari Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ko‘makchilarning tarixiy taraqqiyoti, ularning mustaqil so‘z turkumlaridan kelib chiqishi hamda eski o‘zbek tilida qanday semantik va grammatik vazifalarni bajargani ko‘rib chiqilgan. Asardagi she‘riy parchalar asosida uchun, birla, ichra, uzra, sori, so‘ngra, aro, yanglig‘, burun, qosh kabi ko‘makchilarning morfologik tuzilishi va ma‘no xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi qo‘llanishi bilan qiyosiy jihatlari ham yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Eski o‘zbek tili, ko‘makchilar, Devoni hikmat, Ahmad Yassaviy, tarixiy grammatika, sof ko‘makchilar, funksional ko‘makchilar, morfologik tahlil, semantika, til taraqqiyoti.

Abstract: This article analyzes the features of the use of auxiliaries in the Old Uzbek language using the example of Khoja Ahmad Yassavi’s work “Divoni Hikmat.” During the research, the historical development of auxiliaries, their origin from independent parts of speech, and the semantic and grammatical functions they performed in the Old Uzbek language are examined. Based on the poetic fragments of the work, the morphological structure and semantic features of auxiliaries such as *uchun*, *birla*, *ichra*, *uzra*, *sori*, *so‘ngra*, *aro*, *yanglig‘*, *burun*, and *qosh* are analyzed. In addition, their usage in the modern Uzbek literary language and their comparative aspects are also highlighted.

Keywords: Old Uzbek language, auxiliaries, Devoni Hikmat, Ahmad Yassavi, historical grammar, pure auxiliaries, functional auxiliaries, morphological analysis, semantics, language development.

Ko‘makchilarning tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dastlab ular tarixiy yodgorliklar tilida juda kam uchraydi. Bugungi kunga kelib ko‘makchi vazifasida qo‘llanilayotgan birliklar tarixan ko‘makchi ma‘nosida emas, balki o‘z ma‘nosida ishlatilgan. Ularning davlar mobaynida mustaqil so‘z turkumlaridan ko‘makchilar sirasiga o‘tishi tarixiy yozma yodgorliklar tilida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Qadimgi turkiy til yodgorligi namunasi bo‘lgan O‘rxun-Enasoy yodnomalari tarkibida ko‘makchilarni kam holda uchratamiz. XI asrga kelib, ko‘makchilar yodgorliklar tilida qo‘llanilishi ancha kengaya borgan. Tadqiqotlarimiz davomida aynan shu davrga oid Xoja Ahmad

Yassaviyning “Devoni hikmat” asari misolida ko‘makchilarning eski o‘zbek tilida qay darajada qo‘llanganligini ko‘rib o‘tamiz.

Ayo mo‘min, kirgil yo‘lg‘a murod istab,
Jon bahridin o‘tgin Rahim Rahmon uchun.
Gunohingga pushaymon bo‘l sidqing birla,
Tavba qilg‘il rahm etguvchi G‘ufro uchun.

Yuqoridagi misralarda qo‘llangan uchun, birla ko‘makchilari sof ko‘makchilar (ushbu davrga oid ko‘makchilar sof va funksional ko‘makchilarga bo‘lingan) hisoblanib, ular bugungi kunda tub hisoblansa-da o‘zlarining tarixiy yasaliş xususiyati mavjud. Uchun ko‘makchisi morfologik tarkibiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi: uch — ot; -un — vosita kelishigining qo‘shimchasi. Uch esa ikki xil ma‘no anglatgan: 1) predmetning eng yuqori qismi — uchi; 2) sabab. SNOSKA Uchun ko‘makchisi eski o‘zbek tilida sabab, maqsad, atalganlik, evaz, obyekt kabi semantikalarda keladi va, asosan, bosh kelishikdagi so‘zlar bilan birga qo‘llaniladi. Ushbu ikkala misrada esa atalganlik ma‘nosi anglashilib turibdi. Birla ko‘makchisi turli xil fonetik variantlari bilan barcha davrlarda faol qo‘llanib, birgalik, vosita, holat, sabab, payt, harakatning nima bo‘yicha yo‘nalishi kabi ma‘nolarni ifodalab kelgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa deyarli qo‘llanmaydi, faqat poeziyada uchrashi mumkin.

Ne‘mat berur dunyo ichra turluk alvon,
Bino qildi sakkiz behisht mehmon uchun.

Ichra ko‘makchisi ham sof ko‘makchilar qatoridan joy olgan bo‘lib, ich so‘ziga -ra jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan. Ammo u bugungi kunga kelib hech qanday morfologik tarkibga ajratilmaydi. Dastlab mustaqil so‘z sifatida o‘rin ravishi vazifasini bajargan bo‘lib, yozma manbalarda turli xil ma‘nolarni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Jumladan, yuqoridagi she‘riy misrada o‘rin ma‘nosini ifodalagan va bundan tashqari, sabab, payt, holat kabi ma‘nolari mavjud.

Qiyomatda yuklar murid gunohini,
Sirot uzra titrab qaqshab turor ermish.

Sof ko‘makchilar tarkibiga kiruvchi ko‘makchilardan yana biri bu uzra ko‘makchisi bo‘lib, uza varianti ham qo‘llangan. Ushbu ko‘makchi “ust”, “yuza” ma‘nosidagi uz otiga jo‘nalish kelishigining -ra affiksi qo‘shilishi natijasida hosil qilingan bo‘lib, biror-bir ish-harakatning biror narsa yuzasida bo‘lishini ko‘rsatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bu ko‘makchi tub so‘z sifatida qaraladi. Yuqoridagi misrada ushbu ko‘makchi ish-harakatning Sirot ko‘prigi ustida yuz berayotganini ifodalash maqsadida ishlatilgan.

Haq sorig‘a banda bo‘lsang qilg‘il shitob,
Yig‘lamaymu, jon mahramin tobmasmano?

Sari ko‘makchisining fonetik varianti hisoblangan sof ko‘makchilardan biri sori so‘zidir. U tomon, taraf ma‘nolarida kelib, ish-harakatning biror-bir nuqtaga

yo‘nalganligini bildiradi. Ya’ni yuqoridagi misradan ham ko‘rishimiz mumkinki, Haq tomonga ma’nosida qo‘llanganini. Asosan, bosh kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanib, kishilik va ko‘rsatish olmoshlari bilan qo‘llanganda olmoshlar qaratqich kelishigi shaklida keladi. Masalan, mening sari, munung sari. Bu ko‘makchi bilan bir qatorda taba, tabaru so‘zlari ham xuddi shu ma’noda ishlatilgan, ammo bugungi kunga kelib faqat sari shakli saqlanib qolgan.

Ondin so‘ngra Haqdin kelgoy anga payom,
Hozir turub Arsh ustida ko‘rdum mano.

Funksional ko‘makchilar tarkibiga kiruvchi so‘ngra so‘zi ikki qism: so‘ng va - ra affiksi birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, yuqoridagi misrada ma’lum bir narsa yoki hodisadan keyin boshqa biror-bir ish- harakatning bajarilishi ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Odatda chiqish kelishigidan so‘ng kelib, so‘ng, keyin kabi ko‘makchilar bilan birgalikda ma’nodosh holda qo‘llanadi.

Ishqi tushti g‘arib boshg‘a, turolmadim,
Xalq ichinda toqat qilib yurolmadim.

Ich ko‘makchisi sof ko‘makchi hisoblanib, eski o‘zbek tilida keng qo‘llanilgan. Misralardan anglashilib turibdiki, ushbu ko‘makchi biror ish-harakat, narsa va hodisalarning ma’lum bir o‘rinda yuz berishini ko‘rsatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ichida tarzida ishlatiladi. Eski o‘zbek tilidagi shakli esa ba’zi holatlarda uchrashi mumkin.

Mehnat torttim hech bermadi (mango) sharob,
Cho'llar aro hasrat qilib yurdum mano.

T.Rustamov aro ko‘makchisi haqida quyidagicha fikrlarni aytib o‘tadi: [5; 45] Ara ko‘makchisi va uning fonetik variantlari. Bu ko‘makchilar etimologiyasiga ko‘ra “ara” so‘ziga taalluqlidir. “Ara” ikki xil leksik ma’no anglatadi: 1. Ara fe’l turkumiga mansub bo‘lib, ar fe’lining ravishdosh formasidir. 2. Ara ot turkumiga xos bo‘lib, qadimgi turkiy tillar yozma yodgorliklarida ravishga yaqinlashayotgan ot bo‘lgan. Qadimgi turkiy tillar yozma yodgorliklarida ot, sifat, o‘rin, anglatgan va sof ko‘makchi sifatida ishlatilgan [5;35]. Eski o‘zbek tili davrida esa funksional ko‘makchilar qatoriga kiritilgan. Ushbu ko‘makchi yuqoridagi misrada ish-harakatning bo‘lish o‘mini ifodalab kelgan. Bundan tashqari ish- harakatlarning biror soha, yo‘nalish bo‘yicha bo‘lishini ham ifodalab kelishi mumkin.

Ko‘zum yoshi Favon bo‘ldi chashma yanglig‘,
G‘urbat ichra irodatni qorshu ko‘rdum.

Bu ko‘makchi obraz ma’nosidagi yang ot so‘zidan yaratilgan. Yanglig‘ morfologik tarkibiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi: yan xitoycha bo‘lib, shakl, obraz, usul, uslub, odat ma’nosini anglatasa, -li turkcha bo‘lib, o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega ekanini bildirgan sifat yasovchi qo‘shimchadir. Yanglig‘ so‘zining leksik ma’nosi shaklga, obrazga

ega demakdir. SNOSKA Kabi, singari ko'makchilari bilan ma'nodoshlikni hosil qilib, eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan.

Jon olg'oni bir kun kelur malakul-mavt.

O'lmas burun o'lum birla bo'lg'il ulfat,

She'riy parchada ishtirok etgan burun so'zi funksional ko'makchilar qatorida turadi. Asli ravish ko'makchi (funksional ko'makchilar qaysi mustaqil so'z turkumiga aloqador bo'lishiga qarab, ot, ravish va fe'l ko'makchilarga bo'lingan) hisoblanib, ma'lum bir ish-harakatning boshqa bir ish- harakatdan oldin bo'lishini ifodalaydi. Asosan, ko'makchi vazifasida XIII-XIV asrlardan boshlab qo'llangan va uning burna varianti ham yodgorliklar tilida ma'lum darajada uchraydi. Ko'prq chiqish kelishigidagi birliklar bilan birikib keladi.

Band etibon shayton sani gumroh qilur,

Haq qoshida yuzi qaro bo'lmasmusan?

Funksional ko'makchilar tarkibiga kiruvchi qosh so'zi qadimdan ot so'z turkumi vazifasida iste'molda bo'lgan. Asosan, XV asrga kelib ko'makchi vazifasida kelgan. Harakat yoki holatning shaxs, narsa va hodisalar oldida bajarilishini ifodalaydi. Keltirilgan misradan ham ko'rinib turibdiki, Haqning oldida yuzing qaro bo'lmaysanmi, degan ma'no anglashilib turibdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, eski o'zbek tilida ko'makchilar tilning muhim grammatik vositalaridan biri sifatida faol qo'llanganligi aniqlandi. "Devoni hikmat" asari misolida ko'makchilarning sof va funksional turlari mavjudligi hamda ularning turli semantik vazifalarni bajarishi kuzatildi. Shuningdek, ko'makchilarning aksariyati dastlab mustaqil so'z turkumlariga mansub bo'lib, vaqt o'tishi bilan grammatiklashib ko'makchi vazifasini bajara boshlaganligi ma'lum bo'ldi. Ayrim ko'makchilar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham saqlanib qolgan bo'lsa, ba'zilar faqat tarixiy yoki poetik nutqda uchraydi. Bu holat o'zbek tilining tarixiy rivojlanish jarayonida grammatik vositalarning shakllanishi va taraqqiyotini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. -528 b.
2. Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat"(yangi topilgan hikmatlar). - Toshkent: "Movarounnahr" nashriyoti, 2004. - 83b.
3. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. - Toshkent: "Nodirabegim" nashriyoti, 2021. - 331b.

4. Фозилов Е. Ўзбек тилининг тарихий морфологийаси. - Тошкент: “Фан” нашрийоти, 1965. - 175б.

5. Рустамов Т. Соф кўмакчилар(Ўзбек тили соф кумак-чиларининг тарихий тараккиёти). -Тошкент: “Фан” нашрийоти, 1991. - 125б.

